
O'zbekistonda to'qimachilik markazlarining rivojlanish istiqbollari

Akbaraliyeva Marjona
FARDU 1-kurs magistranti

ARTICLE INFO	ABSTRACT:
ARTICLE HISTORY: Received: 19.04.2024 Revised: 20.04.2024 Accepted: 23.04.2024	<i>Mazkur maqolada tolalarning paydo bo'lishi va dastlabki to'qimachilik korxonalarining rivojlanishi hamda bugungi kunda Respublikamizdagi yengil sanoat korxonalarining holati, ya'ni ishlab chiqarish samaradorligi va eksport holati o'rganib chiqilgan. Bundan tashqari Respublikamiz qonunchiligida yengil sanoat korxonalari faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab islohotlarning olib borilayotganligi va ko'rilayotgan chora-tadbirlar keltirilgan.</i>
KEYWORDS: <i>paxta, tola, to'qimachilik, gazlama</i>	

Arxeologik qazilmalarga qaraganda odamlar o'zlarining rivojlanishini ancha erta bosqichlaridayoq to'qimachilik tolalarini olish hamda ulardan mahsulotlar tayyorlashni uddasidan chiqishgan. Shu bilan bir qatorda ular o'zlarining hayoti uchun tabiat bilan kurashib uni o'z ehtiyojlari bilan moslashtirishga xarakat qilishgan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, qadimda inson tomonidan o'sha paytdayoq to'rt xil tabiiy tolalar o'zlashtirilib yetishtirish, yigirish hamda to'qish texnologik sxemasida gazlama tayyorlashda qo'llanilar edi. Har bir to'qimachilik buyumi (mahsuloti), to'qimachilik mahsulotining har bir metri hamda har bir gramini odamlar to'qimachilik gazlamasini tayyorlash texnologiyalari bilan ishlash vaqtida yigirilgan hamda mujassamlangan xotira va bilimlarning nishonasidir. To'rtta o'ta asosiy tabiiy tolalar: zig'ir, paxta, jun hamda ipakni odamzod olti ming yil oldindan bilgan hamda ishlatib kelgan.

Insonlarning madaniyati rivojlanishi, ilmiy texnik taraqqiyot rivojlanishi bilan birga odamzodning to'qimachilik borasidagi nazariy bilimlari hamda shuningdek yarim tayyor gazlamalarga ishlov berish hamda to'qimachilik mahsulotlari tayyorlashning amaliy texnologik mexanizmlari rivojlanib bordi.

Qadimiy Misrda hamda Xitoyda to'qimachilik paydo bo'lish tarixi. Kamida olti ming yil ilgari dastlabki kimyo tolalari yaralgunga qadar (19 asr oxirlarida) odamzod to'rt tabiiy eng asosiy tolalar: zig'ir, paxta, jun hamda ipak haqida tushunchaga ega bo'lgan hamda uni ishlatgan..

Zig'ir inson tomonidan birinchi o'rganilgan hamda madaniylashtirilgan toladir. Bugungi kunda Misr hududidagi Nil daryosi vodiysida zig'ir tolasidan gazlamalar olinadi.

=====

Bundan ham ilgari ajdodlarimiz kanop ekinlari poyalaridan tola hosil qilish, gazlamalarga o'xshash yopinchiqlar olish ulardan o'z tanalarini berkitib turish maqsadida ishlatishni bilishgan.

Arxeologlar tomonidan Shveysariya ko'li qirg'og'ida topilgan, tosh asri oxiri (miloddan avvalgi 3-8 ming yillar neolit davri) da gullab yashnagan turar joy aholisi zig'irdan tola hosil qilish, yigirish hamda to'qish hunarini puxta o'rganishgan. Shveysariyadagi ushbu maskanni qazishmalari vaqtida zig'ir tolalari tutamlari, gazlama bo'laklari hamda ular yordamida tola hamda gazlama tayyorlashda ishlatiladigan sodda moslamalar topilgan. Ming yillar davomida ushbu gazlamalar ko'l suvidagi qalin balchiq tagida yotganligi tufayli saqlanib qolgan.

Odamlar o'zlashtirib olgan ikkinchi asosiy tola bu jundir. Neolit davrida (tosh asri oxiri) odamlar zig'ir bilan bir qatorda jun tolasini ham ishlatishgan. Hozirgi Shveysariya hududidagi qadimgi turar joy aholisi qo'y boqish bilan shug'ullangan. Qo'y boqish hamda jun olish bilan bog'liq bo'lgan va qazishmalarda o'z isbotini topgan eng birinchi sana miloddan avvalgi 4 ming yillikka to'g'ri keladi. Yevfrat vodiysida (Qadimgi Mesopotamiya) qo'y boqishgan, jun yigirishgan hamda juda oddiy gazlamalar tayyorlashgan.

Inson tomonidan o'rganilgan uchinchi eng asosiy tola paxtadir. Paxta ishlab chiqarilishining moddiy tasdig'i Hindistondagi turar joyning arxeologik qazishmalarida ko'rinadi hamda miloddan oldingi 1000 yillarga to'g'ri keladi. Tadqiqotlarda ko'rinishicha paxtadan miloddan oldingi bir necha ming yil oldin Misrda qo'llanila boshlaganlar.

Savdogarlar paxtaning Hindistondan yaqin Sharqqa, Markaziy Osiyoga hamda so'ngra Xitoyga olib borishgan. Paxta (cotton) so'zining o'zi arabcha —quoton— so'zidan kelib chiqqan. Inson sivilizatsiyasi rivojlanish jumboqlaridan biri bo'lib qanday qilib inson bir vaqtning o'zida turli kontinentlarda (Osiyo va janubiy Amerikada, qadimiy Inklar mamlakati – Peruda) paxta yetishtirish, undan kalava olish va mato to'qishni o'rganganligi turadi.

Hali Yevropaliklar tomonidan kashf etib ulgurilmagan Janubiy Amerikada qadimgi Inklar zamonaviy o'lchamlarda rang, shakli hamda sifati oliy bo'lgan paxta gazlamasini yaratar edilar. Shunday qilib, bu texnologiyalar bir-biridan minglab kilometrda bo'lgan kontinentalarda qadimgi davrlardayoq o'zlashtirilgan edi.

Ba'zi olimlar fikri bo'yicha bu xodisa kontinentlar siljishining geologik nazariyasi foydasiga hamda qadimgi tarixiy davrlarda Tinch okeanida yana bir kontinet (Atlantida) mavjud bo'lganligi baxolariga qo'shimcha argument deb qaraladi. Bu albatta tarixiy da'vo, ammo Misrda miloddan 2500 yil oldin bugungi kundagidan qolishmaydigan yuqori sifatidagi gazlama olishni bilganliklari haqiqatdir. O'sha vaqtdagi Misr mumiyolari zichligi 1 dyumga 540 ta ip bo'lgan matoga o'rab qo'yilgan. Bu turdagi eng yaxshi zamonaviy ingliz gazlamalari 1 dyumga 350 ta ip zichligidadir.

=====

To'rtinchi asosiy tabiiy tola bu ipakdir. Ehtimol ipakning paydo bo'lish vatani Xitoydir. Rivoyat qilinishicha, birinchi bo'lib bu ajoyib tohani Xitoy imperatrissi Xen-Ling-chi (taxm. mil. avv. 2600 y.) yaratgan. U tasodifan pillani issiq suvga solib yuboradi hamda yumshab qolgan pilladan ipak tolalari ajralib chiqqanligini ko'radi. Imperatrisa bu iplardan foydalanish mumkinligini anglab yetadi.

Shu tariqa, tut barglarini iste'mol qiluvchi ipak qurti hayot faoliyatiga asoslangan qadimiy ipakchilik madaniyati yaraldi.

Ammo ipak gazlamalar yaratish texnologiyasi yo Xitoy yo Uzoq Sharqning boshqa davlatlarida yaratib bo'lganligi hamda taxminan miloddan oldingi 3000 yillarda paydo bo'lganligi rost.

Xitoyliklar ipak hamda ipak gazlamalari tayyorlash hamda madaniyatini yuqori darajaga yetkazdilar hamda taxminan miloddan oldingi 1400 yillarda turli xildagi ipak gazlamalar hamda ipak kiyimlar bu mamlakatlarda oddiy iste'mol buyumlariga aylandilar. O'sha vaqtlarda Xitoyda ipak buyumlardan ishlatish uchun soliq to'lanar edi.

Shunday qilib, to'rt xil tabiiy tola tarixan qadimiy inson tomonidan o'zlashtirilgan hamda yetishtirish – yigirish – to'qish texnologik sxemasi bo'yicha gazlama hosil qilish maqsadida foydalanilgan. Bu olti ming yildan ortiqroq davrdan oldin kashf qilingan sxema qo'l mehnatidan boshlab yuqori avtomatlashtirilgan tezkor texnologiyagacha bo'lgan yo'lni bosib o'tsada bugungacha prinsipial o'zgarishlarga uchramadi. Qadimiy turar joylar qazilmalarida topilayotgan eng oddiy yigiruv hamda to'quv stanoklari zamonaviy avtomatlashtirilgan to'qimachilik yigiruv hamda to'quv uskunalari ishlaydigan xuddi o'sha prinsiplarga asoslangan.

To'qimachilik haqida ma'lumot berilganda O'zbekistonda dastlabki ochilgan to'qimachilik korxonalari haqida ham ma'lumot berib o'tamiz. Endi biz bugungi kunda O'zbekistonda to'qimachilikni rivojlantirish uchun qilinayotgan ishlar hamda qaror va farmoyishlar bilan tanishamiz.

O'zbekistonda 2023-yilning oxirgi davrida qiymati 2,8 mlrd. AQSH dollari miqdorida to'qimachilik mahsulotlari eksport qilindi. Ushbu raqamlar umumiy eksport hajmining 12,1 foizini tashkil etadi. Yil boshidan 626 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 63ta davlatiga eksport qilingan. Buning natijasida to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi o'tgan yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu ko'rsatkichlardan ma'lum bo'lib turibdiki to'qimachilik sanoatining rivojlanishi ishchi o'rinlarining sonini ortishiga olib keladi. Hozirgi kunda uyushma qoshidagi korxonalarda 600 mingga yaqin ishchi-xodim mehnat qiladi. Bugun davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan gender tenglik ushbu tarmoq faoliyatida keng o'rin egallagan. Negaki, korxonalarda ishchi-xodimlarning 70 foizi xotin-qizlarni tashkil etadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.09.2023-yildagi "To'qimachilik sanoatini molyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-155-son qaroriga ko'ra: To'qimachilik sanoati korxonalarining mavjud imkoniyatlarini to'liq safarbar etish, ularning eksport salohiyatini yanada oshirish maqsadida:

1. Gazlama, trikotaj mato va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalarni revolver kreditlash asosida aylanma mablag' bilan taminlash uchun Esportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi buyurtmalarga asosan 2023-yilda Tiklanish jamg'armasidan qo'shimcha 50 million AQSH dollar ajratildi. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport halohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-2-son Farmoniga muvofiq o'zgartirishlar kiritildi.

Ushbu farmon va qarorlar shuni ko'rsatadiki, Respublika raxbariyati tomonidan to'qimachilik sanoatini rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda. Xozirgi kunda Respublikamiz xududlarida to'qimachilik sanoatiga mo'ljallangan yirik qo'shma korxonalar ochilib, bu sohadagi eksport salohiyati ortib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, yengil sanoat ya'ni to'qimachilik sanoatiga bo'lgan talab hozirgi zamonda juda yuqori va uni rivojlantirish dolzarb mavzu bo'lib turibdi. Buning isbotini Prezidentimizning bu sohaga bo'lgan e'tibori va chiqarilayotgan qaror va farmoyishlardan bunga asos bo'ladi. Chunki yengil sanoat orqali mamlakatimizni butun dunyoga tanitishimiz, eksport salohiyatini oshirishimiz qolaversa ko'plab bo'sh ish o'rinlari yaratishimiz mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz - T.: O'zbekiston, 2020. -56 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi - T.: O'zbekiston, 2022. -48 b.
3. G'aniyev “To'qimachilik sanoati va ekologiya” Toshkent 1994-2005yil 201 bet
4. T.A. G'aniyev “To'qimachilik sanoatida mehnat muxofazasi” Toshkent. 2010yil-123 bet
5. YE.SH. Olimboyev, P.S.Siddiqov, B.K.Xasanov, M.R.Yunusxodjaeva, D.N.Qodirova “To'quvchilik maxsus texnologiyasi va jixozlari” O'quv qo'llanma. T: “Ilm Ziya”, 2012-55 bet
6. Sh.R. Marasulov “Paxta va himoyaviy tolalarni yig'ish”, Toshkent, 1986 yil, 1-qism